

TYUTORLIK FAOLIYATI ASOSIDA TALABALAR O'RTASIDA AXLOQIY MUNOSABATLARNING PEDAGOGIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xolmatov Furkat Shavkatovich

*Oliy Ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi Huzuridagi Oliy Ta'limni Rivojlantirish
Tadqiqotlari va Ilg'or Texnologiyalarni tatbiq etish markazi ilmiy tadqiqotchisi*

Xayitov Ortiqboy Tursunboyevich
Guliston Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika –Psixologiya yo 'nalishi

I bosqich magistri

ortiqboyxaitov893@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada tyutorlik faoliyatining tashkil qilinishi uning vazifalari va talabalar bilan o'zaro munosabati guruhdagi talabalar bilan ularning izchilligi, axloqiy, huquqiy bilimlarni o'rganish, muammolarga yechim topish, talabalar o'rtasidagi axloqiy munosabatlarning pedagogik jihatlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tyutorlik faoliyati, tyutorlik instituti, shaxsiy, ijodiy yondashuv, tashkil qilish, talabalar, axloqiy munosabatlar, pedagogik mahorat, kreativlik, motivatsiya, hamkorlik, axloq, ko'nikma.

2021-yil 1-sentyabrdan boshlab talabalar bilan ishlash boyicha "guruh murabbiyi" instituti bekor qilinib, uning o'rniga talabalar bilan ishlaydigan "tyutorlar" amaliyoti yo'lga qo'yildi. Tyutor tom ma'noda ustoz, murabbiy, yo'l ko'rsatuvchi ma'nolarida qo'llaniladi. Tyutor ham eng avvalo ma'lum bir sohaning mutaxassisi bo'lib, uning asosiy vazifasi talabaga muayyan bilim va ko'nikmalar berishdan iborat. Kengroq ma'noda tyutor talabaga o'quv jarayoni davomida o'z bilimini salohiyatini namoyon qilish va hayotda to'g'ri qaror qabul qilish va tanlashni o'rgatadi. Tyutor talabalariga ularning har bir qadam va harakatlarning oqibatlarini anglagan holda doimo to'g'ri bo'lish, to'g'ri qarorlar qabul qilish kerakligini tushuntiradi. Tyutorlik usuli qadimgi Yunonistonda ham asosiy ta'lim jarayoniga yordam sifatida yo'lga qo'yilgan edi. Hozirda dunyoning ko'plab mamlakatlarida tyutorlik uchun maxsus o'qitiladi, diplom beriladi. Masalan: Rossiyada pedagogika sohasiga ixtisoslashtirilgan oliygohlarda bakalavr va magistratura bo'yicha maxsus tyutorlik kurslari bor. Tyutorlik markazlari assotsiatsiyalari faoliyat yuritadi. Tyutorlar – bu yuksak mas'uliyat egalari hisoblanadi, garchi tyutor dunyoqarashi endi shakllanayotgan talaba bilan muntazam tarzda ishlaydi, bunday mutaxassisning asosiy vazifasi boshqa odamga o'qishni samarali va qiziqarli jarayoniga aylantirishga yordam berish. Tyutor butun guruh bilan individual tarzda ishlash kerak bo'ladi. Ilmning qaysi sohalarga urg'u berish, kelajakda kasb tanlash, kerak bo'lsa boshqa mutaxassislikka mo'ljal olish, o'qish va kundalik hayot o'rtasida muvozanatni o'rnatish, vaqtini menejment qilish masalalarida talabalarga ta'sir qilish ham tyutorning vazifasidir. Tyutor–talabalarining shaxsiy rivojlanishiga, universitet, respublika, xalqaro miqyosdagi tanlov, olimpiadalarida munosib ishtirok etishiga, shuningdek ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga ko'maklashuvchi inson bo'lib yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jalb etish, hamda muammo va kamchiliklarni o'rganib ularga atroflicha yechim topish bilan shug'ullanadi. Tyutorlar ma'naviy ma'rifiy va axloqiy, tarbiyaviy, o'quv va o'quv uslubiy hamda ilm fan, innovatsion va ilmiy - tadqiqot yo'nalishlarida o'z faoliyatini olib boradi. Tyutor o'z talabalarini bilan doimo do'stona munosabatlarni yo'lga qo'ymog'i va shu bilan ish olib borishi darkor. Eng yaxshi tyutor bo'lish uchun eng avvalo kuchli psixolog bo'lishi zarur. Agarda kuchli psixologiyaga ega bo'lsa, talabalar bilan ishlash, ularning muammolariga yechim topish qiyin bo'lmaydi. Talabaga motivatsiya bera bilish ham kerak. Tyutor har bir talabasi bilan alohida shug'ullanmog'i, g'amxo'rlik qilmog'i va



ularni rag‘batlantirib borishi, kichik yutuqlar uchun ham maqtoqlar qilishi, shuningdek, o‘qishda orqada qolayotgan, fanlarni o‘z vaqtida o‘zlashtirmayotgan talabalarini oldinga harakatlantirish, motivatsiya berishi, boshqa talabalar qatori oldinga chiqishiga guruh bilan birga yordam berishi darkor. Guruhda bitta yalqov talaba bo‘lsa butun guruhni orqaga tortadi shuning uchun ham orqada qolayotgan, o‘zlashtirmaydigan talabalar bilan individual ishlamoq kerak.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bugungi kunda har bir soha jadallik bilan rivojlanmoqda. Shu sohalar kabi ta‘lim sohasida ham juda ko‘p rivojlanishlar bo‘lmoqda, kundan kunga yangi ta‘lim tizimlari yaratilmoqda va bular o‘z navbatida qisqa muddatda o‘z samarasini bermoqda. Talim tizimida yo‘lga qo‘yilgan yangi faoliyat tyutorlik faoliyati ham yildan yilga o‘z yutuqlarini namoyon qilib bormoqda. Yaqin yillarda boshqa davlatlarda tashkil qilingan tyutorlik institutlari kabi O‘zbekistonda ham bunday institutlar tashkil qilinishi mumkin. Har qanday sohani rivojlantirish uchun shu faoliyatning haqiqiy mutaxasislarini to‘g‘ri tanlay bilish kerak. Haqiqiy, fidokor, o‘z kasbini sevadigan insonlargini o‘z sohasini rivojlantira oladi yuqori natijalarga erishadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. A.A.Parmonov – Umumtexnik fanlarni o‘qitishda talabalarning axborot-texnik kompetensiyasini samaralil Ta‘lim, fan va innovatsiya. 2021-yil 2-son. 108-112-betlar.
2. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. –T.: Nihol, 2016 uz.infosom.uz
3. Holmirzaev, N. National experience in the formation of working culture. Ekonomika i sotsium, 2019 - elibrary.ru

